

Zarina MURTOZAYEVA,
Samarqand davlat universiteti
Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi
E-mail: zarina.murtazoyeva@gmail.com

SamDCHTI, (DSc), professor, taqrizi asosida

KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA KONSEPT HAQIDAGI QARASHLAR VA NAZARIYALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolda kognitiv tilshunoslik uning kelib chiqishi hamda konsept va u haqidagi jahon hamda o‘zbek tilshunosligidagi qarashlar va nazariyalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Kognitologiya, konsept, tushuncha, kognitiv fanlar.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ВЗГЛЯДЫ И ТЕОРИИ В КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В данной статье описывается когнитивная лингвистика, ее происхождение и концепция, а также взгляды и теории о ней в мировой и узбекской лингвистике.

Ключевые слова: Когнитология, концепция, понимание, когнитивные науки.

CONCEPTUAL VIEWS AND THEORIES IN COGNITIVE LINGUISTICS

Annotation

This article describes cognitive linguistics, its origin and concept, as well as views and theories about it in the world and Uzbek linguistics.

Key words. Cognitive linguistics, concept, understanding, cognitive science.

Kirish. Tilshunoslik rivojlangani sari u boshqa bir qator fanlar bilan uyg‘unlashib yangi bir yo‘nalishlar va tilshunoslik sohalarini vujudga kelishiga turtki bo‘lyapti. Shulardan biri kognitiv tilshunoslik (lingvistika)dir. Tadqiqotlardan shu narsa ma‘lum bo‘lyaptiki bu soha zamonaviy shu bilan birga eng asosiy tadqiqot sohalaridan biriga aylanib ulgurdi. Kognitologiya fani yoki kognitiv tilshunoslik deb ataladigan bu fan tilni falsafadagi bilish, idrok qilish nazariyasi bilan bog‘lab uni tadqiq etuvchi boshqacha qilib aytganda insoniyatning bilish qobiliyati haqidagi fanning markaziy sohalaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Kognitiv so‘zi inglizcha “cognitive- bilishga oid” so‘zi bilan bog‘liq ya‘ni cognize- angalamoq, bilmoq, tushunmoq ma‘nosini anglatadi. Bu tadqiqot sohasining tarixi haqida B. Nerlich “uzoq o‘tmish va qisqa tarixga ega” deb ta‘riflaydi [1]. Uning fikricha kognitiv tilshunoslikning uzoq o‘tmishi psixologiya, falsafa va kognitiv fanlar tamoyillar, taxminlar, istiqbolli qarashlar va turli xil nazariyalarning tilga yangicha yondashuv sifatida vujudga kelgan deya ‘tirof etadi. Dunyoni, voqeyilikni bilish, idrok etish, til orqali muloqatga kirishish, ma‘lumot uzatish, uni qabul qilish va qayta ishlash ya‘ni idrok etish bu sodda jarayon sifatida qarab bo‘lmaydi. Kognitologiya tadqiqot sohasini turli xil fanlar tutashgan joyda yuzaga kelgani ma‘lum. Ya‘ni kognitologiyada asosiy deb qaraydigan fanimiz, sohamiz falsafa bo‘ladigan bo‘lsa qolgan sohalar tilshunoslik, psixologiya fanlari bilan aloqasi bevosita amalga oshsa, antropologiya va sun‘iy intellekt ya‘ni kompyuter fanlari bilan bilvosita aloqasi namoyon bo‘ladi. Nevrologiya fanida esa kompyuter fanlari va antropologiya fanlariga nisbatan aloqasi bevosita bo‘lsa, psixologiya va tilshunoslikka nisbatan bilvosita ekani namoyon bo‘ladi. Bu qarashlar esa Amerikalik psixolog H. Gardner tomonida qayd etilib sanab o‘tgan olti soha bilan tutashishini va yagona bir ilmiy maqsad – tabiiy va sun‘iy tizimlarda bilimning ya‘ni jamlangan tushunchalarning jamlanishi, fan sohalarini doirasida qayta ishlanishi va qo‘llanishi, muammolari yechimini izlash bilan band bo‘lishini qayd qilgan edi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kognitiv tilshunoslikning yaratilishi 1956-yil deb qayt etilgan va buning asosi sifatida o‘tkazilgan simpoziumni alohida e‘tirof etishadi. Unda bu sohani alohida e‘tirof etgan J. Miller simpoziumni-amaliy- tajribaviy psixologiya, nazariy tilshunoslik va bilish jarayonini kompyuterda dasturlash sohalarini yagona bir butunlikning qismlarini tashkil etishiga ruhan qattiq ishonagan holda chiqqanligini qayd etib o‘tgan. Kelajakda ularning umumiy maqsad sari o‘zaro muvofiqlashuviga ham ishonch paydo bo‘ldi. Ushbu fan shakllanishi sari yigirma yil intilganligi va nihoyat, endi unga qanday nom berishni bilganligiga urg‘u berib o‘tgan” [1].

Kognitiv tilshunoslikning alohida tadqiqot sohasi sifatida vujudga kelishi 1970-yillarning oxiri va 1980-yillarga borib taqaladi. Bu sohaga oid ilk Xalqaro Kognitiv Tilshunoslik Jamiyatiga 1989-yilda asos solingan va 1990-yilda “Kognitiv tilshunoslik” jurnali faoliyatini boshlagan bo‘lsa, Xalqaro Kognitiv Tilshunoslik Jamiyatining birinchi konfrensiyasi 1989-yil Germaniyada bo‘lib o‘tdi.

Rezanova shunday tariflaydi: Kognitiv tilshunoslik tilni o‘rganishda yangi bosqichdir “Lingvistik tasnifning antroposentrik paradigmasida kognitiv tilshunoslik muhim rol o‘ynaydi, til va kognitiv mexanizmining o‘zaro bog‘liqligini ontologik jihatdan eng muhim hal qiluvchi omil sifatida o‘rganadi” [2].

Rus tilshunosligida esa kognitiv lingvistikani V. Z. Demyankov va E. S. Kubryakovalarning ta‘rifiga ko‘ra kognitiv tilshunoslik tilni kognitiv mexanizm sifatida o‘rganadi va ma‘lumotni kodlash va ko‘chirishda muhim rol o‘ynaydi. Kubryakovaning fikri quyidagicha: “til va tafakkur, tilning vazifalari, tilda insonning roli va inson uchun tilning o‘rmi- bu masalalar rus tilshunosligini doimo tashvishga solib kelgan” [3].

Rus tadqiqotchisi L.V. Pravikova kognitiv tilshunoslik haqida shunday yozadi: “Agar kognitiv tilshunoslikka uning paydo bo‘lishi (tafakkur, in‘ikos faoliyati va kognitsiyaning o‘rganilishi, tadqiq qilinishi)ga nima turtki bo‘lgani nuqtai nazaridan emas, balki til sathlari tizimida uning tadqiqot predmetining o‘rmi nuqtai nazaridan olib qaralsa, tilshunoslikning bu yo‘nalishi umuman olganda tilning mazmuniy parametrlarini tadqiq qilish bilan shug‘ullanadi. Bu esa kognitiv semantika, mantiqiy semantika, freym semantikasi kabi yo‘nalishlar bo‘lib ular o‘z navbatida kategoriyalar va kategoriyalashtirish, referentsiya va idrokiiy tildagi nutq faoliyatining informatsion aspektlarini o‘rganish, mushohada qilish demakdir” [4].

Endi esa vatanimizdagi olimlar tomonidan bu yo‘nalish borasida olib borgan tadqiqotlariga keladigan bo‘lsak: D. Ashurova, Sh. Safarov, O‘. Yusupov, M. D. Djusupov, A. Abduazizov, A. Mamatov, G‘. Xoshimov, J. Yoqubov, A. Nurmonov,

M. Galiyeva, N. To'xtaxo'jayeva, D. Agzamova, D. Xudayberganova, B. Mengliyev, Z. Xolmanova kabi olimlarning asarlaridagi fikr-mulohazalari xarakterlidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Aslini olganda ham Kognitologiya fani bu nutqni ongimizda yaratishimiz, til orqali ifoda etib, uni anglash, tafakkur qilish jarayonidir. Bu murakkab jarayon va shu bois bir qancha fanlar o'zaro birikib uni tahlil qilishi va o'rganishi kerak bo'lgan murakkab jarayondir.

Kognitiv tilshunoslikka eng yuqori baho bergan olim bu J. Fokone bo'lib, u bu haqda o'zining qarashlarini quydagicha ifodalaydi: "Kognitiv tilshunoslikning hayron qolarli darajada muvaffaqiyatga erishishi, atidan unda birinchi bor ma'no shakllanishi haqidagi fanni uning rivojlanishi bilan bog'lay boshladilar, lekin qadimgi zamonlardan qolgan tilga ma'noni shakllantiruvchi va ifodalovchi qurol sifatida yondashish kognitiv tilshunoslikda bo'lishiga qaramay, uning barcha tadqiqot metodlari va natijalari butunlay yangidir" [5].

Tahlil va natijalar. Shuni ta'kidlash kerakki, kognitiv tilshunoslikda kontseptualashtirish va kategoriyalashtirish jarayonlari katta ahamiyatga ega. Bunga sabab shundaki, "kontseptualashtirish inson tajribasi- bilimlar tarkibi (majmuasi)ning minimal ma'noli birliklarini farqlashga yo'naltirilgan bo'lsa, kategoriyalashtirish jarayoni o'xshash birliklarini bir biridan farqlab, turlashtirib, ularni nisbatan yirikroq bo'lgan turkumlarga, to'g'riroq'i kategoriyalarga birlashtirishga qaratilgan" [6] bunday holatda tilda so'zlovchi/yozuvchi obyektiv borliqni qanday his qiladi va uni qanday idrok qiladi kabi kabi savollarga javob berish, shu bilan birga ma'lum til egasi bo'lmish real olamda dunyoning obyektiv manzarasining shakllanishida qanday obyektiv va subektiv lisoniy omillar mavjudligini aniqlash esa katta rol o'ynaydi. Bundan tashqari tilda muloqot olib boruvchi mazkur olamda mavjud obyektiv borliqni qanday verbal vositalar orqali, tilga xos til manzarasi orqali voqelantirish usullari va lisoniy ifodalash texnikalarini o'rganish hamda tadqiq qilish muhim rol o'ynaydi.

Shuni aytib o'tish kerakki, barcha boshqa kognitiv fanlardagi kabi, kognitiv tilshunoslikda ham uning asosiy kategoriyasi "konsept" hisoblanadi. Demak, u ko'p qirrali aqliy - idrokiy hodisadir. Konseptni bevosita tashkil etuvchi elementlari mavjud bo'lib, ular uni tadqiq qilishning tushunchaiy, idrokiy, tasviriy-madaniy (kulturalogik) va pragmatik qirralarini tashkil etadi. E. S. Kubryakova fikriga ko'ra "konsept-mental tuzulma bo'lib, u turli tarkibdagi va ko'rinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir" [7].

Zamonaviy tilshunoslikning tadqiqot sohasi deb qaralayotgan kognitiv tilshunoslikda "konsept" atamasi dunyo va olam haqidagi nazariy hamda amaliy bilim va qarashlarimizni nomoyon qilib berish shakllaridan biri sifatida foydalaniladi. "Konsept" tushunchasining fanga kirib kelishi o'rta asrlarga borib taqaladi. Ya'ni konseptualizm davridagi U. Gobss, P. Abelyar, U. Okkam kabi faylasuflar olib kirgani qayd etilgan. Ularning qarashlariga binoan Konsept- bu narsalarning belgilarini umumlashtiruvchi va ong tomondan uning ichki foydalanishi uchun shakllantirilgan va o'zida muhim va dolzarb axborotni jamlagan universal omildir.

D. Popova, I.A. Sternin, konsept keng qamrovli mental birlik, u tuzulma ko'rinishidagi bilimning alohida bo'lagi, kvantidir, degan fikrni ilgari suradi.[8] V.I. Karasikning fikricha, konsept uchta- tushunchaviy, obrazlilik va qadr-qimmat komponentlaridan iborat [9]. S.X Lyapinning majoziy izohiga ko'ra, "konsept tubida tushuncha miltillab turadi" [10]. Ma'lum konseptlarning tipologik tahlili faqatgina semantik farqlarini ko'rsatish uchungina xizmat qilmaydi, balki - ong, anglash, munosabat, faoliyat tushunchalarini integratsion yondashuv orqali modellashtirish uchun ham xizmat qiladi [11]. I. Okunev fikricha, konsept- "tafakkur tili"ni o'rganish va tavsiflash, shuningdek, axborotni angash, saqlash, va qayta ishlash vositasi. Konsept til kategoriyasi sifatida leksik semanti, frazeologik va boshqa birliklar yig'indisida iborat. Shuningdek, u qiymat (baholash), assotsiativ-obrazli (steriotip va sodda ifodalar), kognitiv metafora, etalon va boshqa shu kabi konnotativ komponentlarni ham o'z ichiga oladi [12].

Yana boshqa bir manbalarda uning dastlab fanga kiritilishi boshqa sana bilan belgilangan. Ya'ni S.N. Askoldovning 1928- yilda yozgan "konsept va so'z" maqolasida ishlatilganligini [13] keltirish mumkin. Bu turli xil qayd etilgan sanalardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, konseptga oid turlicha fikrlar, ta'riflar va ularni tadqiq etishga oid turli yo'nalishlar mavjud.

"Konsept" atamasi bugungi tilshunoslikda ikki xil tushuncha sifatida ishlatiladi: eski va yangi. XX asrning yarmiga kelib esa konsept tilshunoslikda termin sifatida qo'llanila boshlandi.

Bugungi kunda bu tushuncha tilshunoslikda "konsept" terminiga ikki yo'nalish - kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazardan yondashiladi.

Demak, bildirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib shu xulosaga kelish mumkinki, "konsept" atamasi turli xil olimlar tomonida turlicha izohlangan.

Sh. Safarovning fikriga ko'ra: "konsept"ning zamiridagi "mental struktura" hech qanday moddiy ko'rinishga ega bo'lmay, balki aqliy idrok jarayonida hosil bo'ladigan, tasavvurdagi tuzilma ekanligini unutmazlik lozim. Boz ustiga, "konsept atamasi "tushuncha", "ma'no", "mazmun" kabi boshqa mental hodisalar bilan yonma-yon turadiki, ayni paytda ularning o'zaro munosabatini aniqlash, farqlash belgilarini ajratish muammosi ham paydo bo'ladi" [2].

Yana bir tilshunos A. Nurmonovning bu boradagi qarashlariga keladigan bo'lsak, konsept va tushunchani bitta narsa deb takidlaganini ko'rishimiz mumkin. Bunda tushunchalar so'zlar orqali ifodalanadi. Shuning uchun so'z- ifodalovchi va ifodalanmish birligidan tashkil topgan belgi sanaladi va bu belgining ifodalanmish tomoni tushuncha yoki konsept sanaladi. So'z obyektiv olam uzvlari bilan, ya'ni denotat bilan konsept orqali bog'lanadi [14].

D. Xudayberganova ham konseptning ko'p qirrali va ko'p qatlamli mental tuzilma ekanligini ta'riflar ekan, konsept - bir vaqtning o'zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturolog jihatlarini namoyon etishini, konseptning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar obyektini sifatida tavsiflanayotgani ham bo'lgan dalolat berib turganligini [15] ta'kidlaydi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, konsept insonning olamni idrok etishida faol harakatlanuvchi, uning ongida mental tarzda namoyon bo'ladigan, til egalarining dunyo qarashi, milliy etnik xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi birlikdir. Shuningdek, konseptning milliy-madaniy jihatiga ham tilshunoslar e'tibordan chetda qolmagan. Kontseptning barqarorligi va to'liqligi, mukammalligi va izchilligi tushunchaning sifatini belgilaydi. Tushuncha sezish-idrok-tasavvur bilan birgalikda o'qish, eshitish tushuntirish orqali ham qabul qilinishi mumkin.

Xulosa va takiflar. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, konsept insonning olamni idrok etishida faol harakatlanuvchi, uning ongida mental tarzda namoyon buladigan, til egalarining dunyoqarashi, milliy etnik xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi birlikdir. Shuningdek, konseptning milliy-madaniy jihatiga ham tilshunoslar e'tiboridanchetda qolmagan. Kontseptning barqarorligi va to'liqligi, mukammalligi va izchilligi tushunchaning sifatini belgilaydi. Tushuncha sezish-idrok-tasavvur bilan birgalikda o'qish, eshitish tushuntirish orqali ham qabul qilinishi mumkin.

1. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik.- Jizzax: Sangzor, 2006. - B. 20.
2. Rezanova Z. I. Paradigmalarda kognitiv tilshunoslik lingvistik funksionalizm va integral tushunchalar ong // Vestnik jild. davlat un-ta, 2010. Tomsk. - No 334. - B. 195- 199.
3. Кубрякова Е.С. О когнитивной лингвистики и семантики термина когнитивны// Вестник Воронежского государственного университета. – Воронеж, 2001.90 - с
4. Pravikova L.V. Kognitiv va kognitiv tilshunoslik // Axborotnoma Pyatigorsk davlat universiteti. ... M.: Moliya va statistika, 1999 yil. B. 37-38
5. Fauconnier Gilles. Leitro de Almeida, M., Ferreira Lisboa Jъnior. "Semantics and Cognition."Fauconnier 1999, P. 96-98.
6. Kubryakova E.S., Demyankov V.Z., Pankrats Yu.T., Luzina L.G. Qisqacha kognitiv atamalar lug'ati. Kompilyatorlar:. -M., 1997. -B. 47-52.
7. Kubryakova E.S. va boshqalar. Kognitiv atamalarning qisqacha lug'ati / ostida ...16059.istina.msu.ru › nashrlar › kitob. Moskva nashriyoti davlat universiteti. Moskva 1996. - B. 90.
8. Lingvistik tadqiqotlarda "kontsepsiya" tushunchasi - Voronejb 2000. 4-bet.
9. Karasik V.I. Tildagi madaniy dominantlar // Til shaxsi: madaniy tushunchalar. - Volgograd - Arxangelsk. 1996. B. 3-16.
10. Lyapin S.X. Konseptologiya: yondashuvni shakllantirish tomon // Tushunchalar. Nashr. I. - Arxangelsk, 1997. - B. 11-35.
11. Mardiev T.K. —Baxtl linguomadaniya va semantik talqini tushunchasi // Xorijiy filologiyasi, 2016 yil. - 4-son. B.-36.
12. Kuneva I.O. Rus va ingliz tillarida "Go'zallik" tushunchasi: Diss avtoreferati. ... raqobat uchun fan nomzodi ilmiy darajasi. Fanlar. - Moskva, 2009. - B. 7
13. Yusupov O'.Q. Chog'shtirma tilshunoslikning yangi vazifalari. - Xorijiy filologiya. - Samarqand. - 2011. - 3-son. - B.100-103.
14. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. - Toshkent, 2002. - B-68
15. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. - Toshkent: Fan, 2013. - B.13.